

Bajarilishi uch yilga mo'ljallangan amaliy loyihalar mavzusi

“Qishloq xo‘jaligi va atrof-muhitni muhofaza qilish fanlari” yo‘nalishi		
№	Amaliy loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
	Masofadan turib Orolbo‘yi zonalarining tuproq xususiyatlarini aniqlash uchun kosmik tasvirlarni spektral tahlil qilish 	Tadqiqotning shakli: Amaliy. Ilmiy-tadqiqot natijalari: - tuproq turlarini ajratish va ularning namlik, mineral tarkibi, kislotalilik va ozuqa moddalari kabi asosiy xususiyatlari aniqlanadi va xarita yaratiladi; - tendentsiyalarni aniqlash va inson faoliyati va iqlim o‘zgarishining tuproq qoplamiga uzoq muddatli ta’sirini tushunish uchun kosmik tasvirlardan foydalangan holda vaqt o‘tishi bilan tuproq xususiyatlarining o‘zgarishini kuzatiladi; - tuproq degradatsiyasiga uchragan hududlarda dehqonchilik amaliyotini yaxshilash, yerdan foydalanishni optimallashtirish va ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi. - kosmik tasvirlarni tahlil qilishdan olingan aniq va dolzarb ma’lumotlar asosida tuproq resurslarini monitoring qilish va boshqarish tizimi ishlab chiqiladi; - Masofadan turib Orolbo‘yi zonalarining tuproq xususiyatlarini aniqlash uchun kosmik tasvirlarni spektral tahlil qilinadi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish: Tadqiqot natijalari Qishloq xo‘jaligi vazirligida tasarrufidagi tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi. Ilmiy natijalarni chop etish: Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi. Izoh: Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Qishloq xo‘jaligi vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.